

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИ ҲУЗУРИДАГИ ДАВЛАТ
ТИЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДЕПАРТАМЕНТИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ВАЗИРЛИГИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ ВАЗИРЛИГИ

АЛИШЕР НАВОЙЙ НОМИДАГИ
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ УНИВЕРСИТЕТИ

**“ЎЗБЕК МИЛЛИЙ ВА ТАЪЛИМИЙ
КОРПУСЛАРИНИ ЯРАТИШНИНГ НАЗАРИЙ
ВА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРИ”**

**мавзусидаги
халқаро илмий-амалий конференция
материаллари
(2021 йил 7 май)**

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИ ҲУЗУРИДАГИ ДАВЛАТ
ТИЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДЕПАРТАМЕНТИ**

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ВАЗИРЛИГИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ ВАЗИРЛИГИ

**АЛИШЕР НАВОЙЙ НОМИДАГИ
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ УНИВЕРСИТЕТИ**

**“ЎЗБЕК МИЛЛИЙ ВА ТАЪЛИМИЙ
КОРПУСЛАРИНИ ЯРАТИШНИНГ НАЗАРИЙ
ҲАМДА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРИ”**

мавзусидаги

халқаро илмий-амалий конференция

материаллари

(2021 йил 7 май)



UO‘K: 004.8+81’33

КВК: 81.1

Ўзбек миллий ва таълимий корпусларини яратишнинг назарий ва амалий масалалари / Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. 2021 йил 7 май. Электрон нашр / ebook. – Тошкент: ТошДЎТАУ, 2021. – 330 б.

Ушбу тўпламдан Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетида бажарилиши 2020-2021 йилларга мўлжалланган АМ-FZ-201908172 рақамли “Ўзбек тили таълимий корпусини яратиш” мавзусидаги амалий лойиҳа доирасида ташкил этилган “Ўзбек миллий ва таълимий корпусларини яратишнинг назарий ҳамда амалий масалалари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари жой олган.

Масъул муҳаррир:

Б.Р.Менглиев, Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети профессори, филология фанлари доктори

Тақризчилар:

Ш.Х.Шаҳобиддинова, Андижон давлат университети профессори, филология фанлари доктори

Ж.Ш.Жумабаева, Ўзбекистон Миллий университети профессори, филология фанлари доктори

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:

Ш.М.Хамроева, Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети докторанти, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Ш.К.Гулямова, Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети докторанти, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ONA TILI TA'LIMIDA MILLIY MATNLAR KORPUSIDAN FOYDALANISH ZARURATI

THE NEED TO USE NATIONAL TEXTS IN THE EDUCATION OF THE MOTHER'S LANGUAGE

Mavlonova Klaraxon Maxmutovna*
Xakimova Nilufar Sabirjanovna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili ta'limida milliy matnlar korpusidan foydalanish zarurati, mazkur korpuslarda e'tiborga olinadigan jihatlar, korpusdagi qidiruvga oid parametrlar, matnlarning xususiyatlari va undagi so'zlarning izohini berishga oid tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: til korpusi, matn korpuslari, qidiruv parametrlari, matnlar bazasi, so'zlarning izohi, teglar.

Annotation: This article provides recommendations on the need to use the national text corpus in mother tongue education, aspects to consider in these corpus, search parameters in the corpus, text properties, and word interpretation.

Keywords: language corpus, text corpus, search parameters, text database, annotation, tags.

Bugungi kunda dunyoda rivojlanib borayotgan eng muhim tillarning aksariyatida milliy korpus yaratilgan bo'lib, u til ta'limi va boshqa bir qancha sohalar uchun ham muhim manba vazifasini o'tamoqda.

Til ta'limini yangi sifat bosqichiga ko'tarish bilan bog'liq jarayonda til o'qitishning milliy tizimi, ushbu tizim doirasida Ona tili fanini o'qitish konsepsiyasi [Umumiy o'rta ta'limning ona tili fanidan Milliy o'quv dasturi, 2020: 12], Milliy o'quv dasturining ishlab chiqilishi, “Ona tili” darsliklarining kommunikativ va kognitiv yondashuvlar asosida yaratilayotganligi mazkur sohadagi jiddiy islohotlardan darak beradi.

Muhokama uchun taqdim etilgan ona tili fanidan Milliy o'quv dasturidagi eng asosiy o'zgarishlardan biri – bu ona tili ta'limida lingvistikaga oid nazariy bilimlarning amaliy tabiatli nutqiy kompetensiyalar ustida ishlashga yo'naltirilishi va unga bo'ysundirilishi yetakchi tamoyil sifatida belgilandi. Ushbu yo'nalishdagi darsliklar, o'quv qo'llanmalar, multimedia vositalarini yaratish jarayonidagi muhim muammolardan biri esa nutqiy mavzular uchun mos keladigan matn korpuslarining mavjud emasligidadir. Ya'ni shu kungacha o'zbek tilini o'qitishda o'quvchining ayni yoshiga mos keladigan matnlar qanday talablarga javob berishi kerak, matn uchun qo'yiladigan pedagogik-psixologik tamoyillar, uning hajmi, sifati, unda qo'llanadigan til birliklari, matnning leksik, morfologik va sintaktik jihatdan ma'lum me'yorlarga mos kelishi metodist olimlar tomonidan maxsus tadqiq etilmagan. Shunday tadqiqotlarning olib borilishi esa soha mutaxassislari uchun matn va unga qo'yiladigan talablarning alohida ilmiy-metodik tajribalar yordamida ishlab chiqilishi hamda ushbu tadqiqot natijalari yordamida matn korpusini yaratishdek eng muhim va dolzarb muammoni hal qiluvchi yo'l sanaladi.

Hozirgi kunda milliy korpus yordamida tildan foydalanuvchilar va uni o'zlashtiruvchilar uchun keng imkoniyatlarning vujudga kelishi, undan lingvistlar, leksikogrlar, kompyuter lingvistlari, muharrirlar, tarjimonlar, jurnalistlar, noshirlar, olimlar, o'qituvchilar, ta'lim oluvchilar va boshqa har qanday soha mutaxassisi til bilan bog'liq muammolarini hal qilishi uchun keng foydalanish imkoniyatiga ega ekanligi uning nechog'liq muhim ekanligini ko'rsatadi [Mengliyev, 2020: 54].

Bugungi kunda til ta'limini milliy korpuslardan foydalangan holda tashkil etish tobora keng tus olib bormoqda.

Til korpuslari bir nechta ichki korpuslarga ajratilgan bo'lib, ular ichida matn korpuslari tilni o'qitishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Chunki til korpuslari tarkibiga kiruvchi matn korpuslari o'qituvchi uchun tayyor o'quv materialini tayyorlash, grammatik bilimga mos keluvchi misollarni keltirishda, hatto o'quv dasturlari va darsliklarini ishlab chiqishda ham qimmatli manba sifatida xizmat qiladi [Mengliyev, 2020: 30].

* Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU Amaliy tilshunoslik va lingvodidaktika kafedrasida katta o'qituvchisi, p.f.d. (PhD)

* Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU 1-bosqich magistranti



Matn korpuslaridan o'rta ta'limda foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjud bo'lib, birinchidan, matn korpuslari o'quv jarayonini tashkil qilishning interaktiv va zamonaviy yordamchisi sanaladi. Milliy matn korpuslari o'qituvchilarning ta'lim jarayoniga tayyorlanishi uchun o'rganilishi nazarda tutilayotgan lingvistik hodisa yoki birlikning real ko'rinishlari, uning tarixiyliigi, qo'llanilishi bilan bog'liq bir qancha qimmatli ma'lumotlar bazasi vazifasini bajaradi.

U imkoniyati cheklangan va qo'shimcha ta'limga muhtoj bo'lgan o'quvchilar uchun mustaqil ta'lim olish imkoniyatini beradi. Shuningdek, o'rganilgan til birliklarining bir necha xil ko'rinishlari bilan amaliy jihatdan tanishish orqali o'quvchida til birliklari haqidagi yaqqol va uzoq muddat esda qoluvchi taassurotni paydo qiladi.

O'rta ta'limda til ta'limi sifatini yangi bosqichga ko'tarish uchun maxsus tajriba-sinov ishlarini milliy korpuslar orqali amalga oshirish aniq ilmiy xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi, bu esa soha bilan bog'liq muammolarni tezlik bilan oz fursatda hal qilish va muammoni bartaraf etishda aniq obyektiv xulosa chiqarish uchun jahonda tan olingan eng qulay usul sanaladi.

Til korpuslari uchun o'quv matnlarini tayyorlash, mavjudlarini tanlab olish juda murakkab vazifa sanaladi. Bu borada rus tilining matn korpusini yaratishda bir qancha maxsus tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, o'quv materiali uchun tanlab olingan matnlarning xususiyatlarini o'rganish S.Zaxarova [Zaxarova, 2015: 10-12], Abdullayeva [Abdullayeva, 2015: 719] va Gyurduyanlar [Gyurduyan, 2008: 96] tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarda til korpuslarida o'quv materiali uchun tanlab olingan matnlar o'zining boshqa matnlardan o'ziga xos jihatlarning ajratib ko'rsatilganligi bilan farqlanishi, ya'ni o'quv materiali sifatida berilgan matnda o'rganish uchun ajratib olingan til birliklari maxsus elektron izohni talab qilishi, ushbu izoh yordamida uning ushbu vaziyatdagi ma'nosi, vazifasi aniqlashtirilib borilishi zarurligi ta'kidlangan. O.Y.Redkina o'quv materiali uchun tanlab olingan matnning maxsus yozuvchilar tomonidan yaratilgan matn va kundalik hayotda uchragan matnlarning o'ziga xos farqli tomonlari, so'z ishlatish mahorati, yozuvchi tomonidan yozilgan matn bilan uni o'zlashtirish natijasida hosil bo'lgan matnlarning o'zaro qiyosini tahlil qilish imkoniyatining mavjudligini ham muhim belgi sifatida keltirgan [Redkina, 2019:126].

Bugungi kungacha yaratilgan o'quv korpuslari tarkibidagi matnlar maxsus tadqiqotlar orqali kiritilishi, shu o'rinda ushbu matnlar, eng avvalo, turli yoshdagi o'quvchilar, turli ta'lim bosqichlari uchun mos bo'lishi, o'qitishning qulayligi kabi sifatlarga javob berishi bilan belgilangan. Buning uchun maxsus tajriba-sinov ishlari o'tkazilib, ushbu tajriba-sinov natijalari quyidagi asosiy ko'rsatkichlar yordamida o'lchanadi:

1. Korpus uchun tanlab olingan matnga ekspreklar tomonidan berilgan xulosa.
2. Matnning o'qishlilik ko'rsatkichini aniqlovchi maxsus formula natijasi.
3. Bir qator leksik, morfologik va sintaktik parametrlarni hisoblashni o'z ichiga olgan ko'rsatkichlar.

Matnni o'quv korpusiga kiritish uchun asos bo'ladigan ushbu ko'rsatkichlarning uchinchi biron murakkabroq jarayon bo'lib, ushbu jarayonda matnning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari alohida-alohida tadqiq etilishi lozim. Ayniqsa, matnni leksik jihatdan tadqiq etishda so'zning matn mazmunini ochib berishdagi ahamiyatidan tortib, uning muayyan yoshdagi o'quvchi lug'atida mavjudligi, murakkablik darajasi, qo'llanilish chastotasi, matn tarkibidagi so'zlarning leksik yaqinligi, uning etnomadaniy, terminlogik tomonlarigacha maxsus o'rganilishi talab etiladi.

Til korpuslari tarkibiga kiruvchi matnlar quyidagi parametrlar asosida qidiriladi:

Uslubi: badiiy nutq, ilmiy nutq, publitsistik nutq, shevaga xos nutq, hududga xos nutq, she'riy nutq, og'zaki nutq, texnika tili. Bunda bir vaqtda ikki xil nutqni o'zaro qiyoslash imkoniyati ham mavjud bo'lishi mumkin.

2. Mavjud bo'lgan davri.
3. Erkin yoki turg'un strukturaga ega ekanligi.
4. Matnning grammatik belgilari tahlili.
6. Matnning leksik jihatdan o'ziga xosligi.
7. Qaysi yoshdagi ta'lim oluvchiga mo'ljallangani.

Eng avvalo, qidiruv tizimiga qidirilayotgan matn mavzusi yoki mavzu bilan bog'liq tushuncha yoziladi. Ushbu so'z yoki matn uchun yuqoridagi parametrlar tanlanadi va shundan so'ng korpus qidiruvni amalga oshiradi.



Masalan: “o‘qday” so‘zi bilan bog‘liq qidiruv amalga oshirilganda uning bir necha xil ma‘nolari ko‘rsatiladi, ushbu so‘z ishtirok etgan matnlar yordamida uning bir qancha ma‘nolariga aniqlik kiritiladi.

1. *Hammasini yer yuzidan sidirib tashlab, o‘rniga bog‘-rog‘ga ko‘milgan, ko‘chalari o‘qday to‘g‘ri, oppoq, ko‘rkam qishloq barpo qildi. (O.Yoqubov, “Diyonat”)*

2. *Uning so‘zlari garchi o‘q kabi botayotgan bo‘lsa-da, Elchin uchun yangilik emasdi. (T.Malik, “Shaytanat”)*

3. *Ertalab haykalning ochilishidan qaytayotib, mashina oynasidan o‘ziga o‘qdek qadalib turgan bir juft ko‘zni ko‘rib qoldi. (E.A‘zam, “Shoirning to‘yi”) [Mahmudov, 2018: 89]*

Ko‘rib turganingizdek, birinchi gapda “o‘q” so‘zining to‘g‘ri, adil ma‘nosi, ikkinchi gapda botmoq, tegmoq, teshib o‘tmoq, sanchilmoq ma‘nosida, uchinchi misolda esa qadalmiq, tikilmiq ma‘nosi yuzaga chiqayapti. “O‘q” so‘zining mana shunday izohlarini berish esa so‘zga teg qo‘yish orqali amalga oshiriladi.

3. Grammatik ma‘nosi bilan bog‘liq qidiruv. Ushbu jarayonda so‘z bilan bog‘liq bo‘lgan barcha grammatik shakllar qidiruv oynasining o‘zida paydo bo‘ladi. Masalan:

So‘rog‘i	Ma‘noviy xususiyati	Morfologik xususiyati	Sintaktik xususiyati	Tuzilishiga ko‘ra turi	Tub yoki yasamaligi	Qo‘shimcha izohlar
----------	---------------------	-----------------------	----------------------	------------------------	---------------------	--------------------

Ushbu parametrlar ham o‘z navbatida yana ichki parametrlarga ajralib ketaveradi. Maxsus oynadan ushbu parametrlar tanlanadi va o‘quvchining talabiga mos keluvchi so‘zlar ishtirok etgan matnlardan misollar keltiriladi.

Mana shu parametrlar asosida matnlar bazasini yaratish ancha murakkab jarayon bo‘lib, matnlarni ushbu talablarga moslash maxsus ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi.

Tanlab olingan matnlar uchun maxsus topshiriqlarning ham kiritilishi maqsadga muvofiq bo‘lib, bunda o‘quvchi tanlangan mavzu doirasida o‘z bilimlarini oshirishda ushbu savol va topshiriqlardan foydalanadi. Maxsus qidiruv tizimining mavjudligi esa til birliklarining qo‘llanishi bilan bog‘liq paydo bo‘lgan savollarni hal etishda qulay vosita bo‘lib, o‘quvchi o‘z fikrini tekshirish, ma‘lumotlarni asoslash, uni boshqalarga isbotlash uchun ham ushbu tizimdan foydalanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ushbu soha mutaxassislar tomonidan maxsus tadqiqotlar, tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va shu orqali milliy korpusni yaratish til ta‘limi bilan bog‘liq juda ko‘plab masalalarni hal etishdagi muhim vazifalardandir.

ADABIYOTLAR:

1. Umumiy o‘rta ta‘limning ona tili fanidan Milliy o‘quv dasturi (1–11-sinf). – Toshkent, 2020.
2. Б.Менглиев. Тилшуносликнинг амалий масалалари. Монография. –Тошкент: Globe Edit, 2020.
3. Захарова Г. Ф. Лексико-стилистические особенности учебных текстов для обучения чтению научно-технической литературы на английском языке // Гуманитарный вестник. 2015. №1 (27). – С. 3–17.
4. С.К.Абдуллаева. Лексическая стилистика учебного текста. Молодой учёный, 2015. №7 (87). – С. 719–721.
5. Mengliev B., Shahabitdinova Sh., Khamroeva Sh., Gulyamova Sh., Botirova A. The morphological analysis and synthesis of word forms in the linguistic analyzer // Linguistica Antverpiensia, 2021, 2021(1), стр. 703-712.
6. Хамроева Ш. Муаллифлик корпусининг муштарак ва ўзига хос жиҳатлари // Сўз санъати халқаро журнали. – №2 (2020) – Б. 80-87. DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-2>
7. Khamroeva Sh. Morphotactic rules in the morphological analyzer of the uzbek language // “MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN”. VOLUME 6, NOVEMBER 2020. – ISSN 2694-9970 – P. 45-49.
8. Хамроева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти. Тошкент: Globe Edit, 2020. – 253 б. ISBN: 978-620-0-61728-6
9. Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Монография. ISBN-10: 6200515077; ISBN-13: 978-6200515070 Издатель: GlobeEdit (7 февраля 2020 г.); 260 страниц
- 10.Гюрджян Н. С. Речевые и языковые манифестации когнитивного конфликта в английском и русском языках (контрастивный аспект) // Научная мысль Кавказа, 2008. №1 (53).



- 11.Редькина О. Ю. Производность лингводидактического дискурса и её следствия // Вестник ЧелГУ. 2019. №10 (432). – С. 124–129.
- 12.N.Mahmudov va b. Ona tili. 11-sinflar uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.



К.М.Мавлонова, Н.С.Хакимова Она тили таълимида миллий матнлар корпусидан фойдаланиш зарурати	205
Д.Юлдашева, Д.Юсупова Она тили таълимида ўзбек тилининг миллий корпусига эҳтиёж сезилмоқда	209
Ғ. Ҳ.Ҳамроев Электрон ўқув луғатлар ва миллий тил корпуси: муаммо, эҳтиёж ва таклифлар	212
Н.Э.Абдуллаева Паремнологик градуонимиянинг лингвопрагматик жиҳатларини ўрганишда тил корпусларидан фойдаланиш	215
Ф.С.Бахтиярова Таълим сифатини оширишда компютердан фойдаланиш ва ўрта махсус таълим тизимида доир айрим мулоҳазалар.....	219
Р.А.Каримов Параллел корпуснинг лингвистик, хорижий тил лингводидактикасидаги аҳамияти ва таржимонлик соҳасидаги имкониятлари	223
Ш.С.Абдираимов Баҳолаш ва миллий корпус	229
З. Ҳ.Раҳматова, Ш.И.Набиева Ўзбек тилининг таълимий корпуси базасини такомиллаштиришда мактабгача ёшдаги болалар луғатларининг ўрни	232
М.Ш.Сайдалиева Ўзбек тилининг мултимедия корпусини яратиш тамойиллари	236

V ШЎҒБА: ТАБИИЙ ТИЛГА АВТОМАТИК ИШЛОВ БЕРИШ МУАММОЛАРИ

М.С.Шарипов, У.И.Салаев Ўзбек тили стемминг масаласини ечишда префиксларни қирқиш алгоритмини яратиш	240
Әмирғали Жанар Орынбасарқызы қазіргі түрік тілі мен қазақ тіліне ортақ сөздердің лексика-семантикалық жүйесі	244
И.А.Азимова Афазияда лингвистик ва экстралингвистик омилларнинг ўрни	250
А.Ботирова Лингвистик луғатлар яратишга доир янгича ёндашув	254
Д.С.Турдалиева Мақоллар ва маталларнинг мувофиқловчи функциялари	257
А.Акбулатов, З.М.Мўтиев Шўйіншалиева «служак» әнгімесінің көркемдік табиғаты, типологиялық талдау	261
Ш.К.Гулямова, Ш.Ш.Холова Семантик анализатор борасидаги изланишлар хусусида	265
Н.И.Ғайбуллаева Тиббий лингвистик бирликларнинг электрон луғатини яратиш	270
Э.Ш.Назирова, Ш.Б.Абидова, Н.Ф.Жамолов Ўзбек тилидан қорақалпоқ тилига таржиманинг функционал модули	275
Б.Р.Тожибоев Ўзбек тили ассоциатив луғатини тузишда қўлланилган тажриба методи	279
М.А.Холова Ўзбек миллий корпусида халқ шевалари ривожланиш асосларига бир назар ..	282
А.Муртазаев Содда гаплардаги айнанлик, ўхшашлик ҳамда фарқлилик категорияларининг сунъий интеллектдаги ўрни	288
И.М.Раббимов, С.С.Кобиллов, З.М.Қурдошев A problem of part-of-speech tagging in the uzbek language corpus	292
Р.Каримов Ўзбек-инглиз параллел корпусида халқ мақолларининг ифодаланиши	296
Ў.Х.Абдуллаева Ўзбек тилидаги электрон ахборот матнлари корпусини яратишдаги ўзига хосликлар	299
А.А.Раҳманова Ўзбек тилидаги омонимлар билан боғлиқ дастурий муаммоларни бартараф этиш усуллари	303
Д.Тўраева Шахсий ёзишма тушунчаси ва экспертиза усуллари	309
О.Ж.Хидиров Ўзбек тилида эргашган қўшма гапларни синтактик теглаш ва моделлаштириш	313
О.Д.Насирдинова Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик асосини даражалашда ўзбек	

